



INGLIZCHA-O'ZBEKCHA O'QUV METODIK TERMINLAR TARJIMA MUAMMOLARI

Beginova Manzura Xolboyeva

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

2-kurs tayanch doktoranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10389612>

ARTICLE INFO

Received: 06th December 2023

Accepted: 14th December 2023

Online: 15th December 2023

KEY WORDS

ABSTRACT

Ma'lumki chet tili o'qituvchilari til o'qitishda aynan ingliz tilini o'qitishda doimiy izlanishda bo'lishadi. Bu izlanishlar jarayonida ular ko'pgina treyning kurslarga va sohalariga doir ilmiy-amaliy anjumanlarga qatnashadilar. Shuningdek ular o'qitishga doir kitoblar va maqolalar o'qishlariga to'g'ri keladi. Ushbu jarayonlarda o'qituvchilar o'z sohalariga tegishli terminlarga duch keladilar. Tarjima jarayonida bir ma'noli tarjima qilingan bo'lsa bu tushunmovchilikga olib kelishi mumkin va ushbu jarayonida terminologiya qonun qoidalarini bilish, lingvistika va semantikadan nazariy bilimga ega bo'lish talab qilinadi. Agar ushbu soha egalari va tarjimonlar ega bo'lmasalar ular bir qator qiyinchilik va muammolarga yuzlanadilar.

Biz bilamizki xar bir sohaning o'ziga xos maxsus so'zlari mavjuddir. Bu so'zlar terminlar deb xam ataladi. Terminlar o'sha soha vakillari va o'sha sohani o'rganuvchilari uchun muhimdir. Xozirgi tez rivojlanayotgan davrda xar bir tilning leksikasida va grammatikasida o'zgarish kirmoqda. Shuningdek ma'lum bir sohalar xam globallashgan sayin ularda qo'llaniladigan terminlarga yangiliklar kiritilmoqda. Dunyodagi bir biriga qardosh mamlakatlarning ma'lum bir yo'nalishdagi terminlari chog'ishib kelmoqda ya'ni bir xil terminlar ishlatilmoqda va aksincha ba'zi terminlar boshqa tildan kirib kelganda milliy tilga tarjima qilish talab etiladi va bunday hollarda ba'zida tarjimada muammolar yuzaga kelmoqda.

Soha mutaxassislari bilan bir qatorda tarjimonlar ham ular o'rtasidagi muloqotda vositachilik qilish jarayonida terminlarning asosiy foydalanuvchisi hisoblanadi. "Tarjima - bu turli tillarda so'zlashuvchilar o'rtasidagi muloqotni osonlashtirishga qaratilgan jarayon." Maxsus sohalarda terminologik faoliyat muqobil yoki asosan adekvat tarjimani qo'llab quvatlaydi. Tarjimonlar tarjima qilish jarayonida matnni tushunish va bu matndagi maxsus sohaga doir terminlar haqida bilimga ega bo'lishlarini talab etadi. Yaxshi tarjima nafaqat manba matni bilan bir xil tarkibni ifodalashi kerak, balkim undan ayni soha vakillari foydalana oladigan shaklda ifodlanishi lozim.



Maxsus sohaning terminlarini tarjima qilishda terminologik ekvivalentlik ko'p tili terminologiyaning kalitidir. Ikki tili yoki ko'p tili terminga asoslangan lug'atlarning mualliflari ko'pincha "Terminologiyalar real dunyoning ob'ektiv tuzilmalarini aks ettiradi" degan tamoyildan boshlanadi. Darhaqiqat, real dunyoning maxsus til tuzilishida aks etishi turli tillarda, ayniqsa, san'at va ijtimoiy fanlar kabi yuqori darajada tuzilmagan sohalarida bir xil bo'lmasligi mumkin. Bunday sohaga tegishli terminlar tarjimalarida ekvivalentlikka yondashiladi.

Bunday maxsus sohalaridan biri ta'lim sohasidir. Ta'limdagi terminlarni tartibga solish, tizimlashtirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. olimlar, tadqiqotchilar va lug'atshunoslar tomonidan o'rganilib chiqilmoqda va ko'pgina tillarda tarjimalari keltirilgan lug'atlar yaratilmoqda.

Oxirgi yigirma yillikda pedagogik terminologiyani tartibga solish va tizimlashtirish bo'yicha faol ishlar olib borildi. U o'z echimini talab qiladigan muammolar ro'yxatini belgilashga imkon berdi. Bularga quyidagilar kiradi: pedagogik atamalarning noaniqligi, ingliz tilidagi pedagogik atamalarning chet tillarida takrorlanishi, yangi so'zlarning ilmiy muomalaga kiritilishi, muayyan tushuncha va hodisa bilan bog'lanmagan holda o'zini atama qilib ko'rsatish va tarjima qilishda muammolarning uchrashi. Pedagogik terminologiyani tartibga solish va tizimlashtirish pedagogik terminologiyaning butun vujudga kelishi va rivojlanishi tarixini jiddiy o'rganish va tushunish asosida hamda o'zbek tili an'alarini hisobga olgan holdagina mumkin. Bunday ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri tarixiy terminologik pedagogik lug'at tayyorlash bo'lishi kerak.

Pedagogika sohasiga kiruvchi metodika yo'nalishining xam o'ziga xos terminlari mavjuddir. Biz tadqiqotimizda asosan chet tillari ya'ni ingliz tili o'qitishdagi o'quv metodik terminlar va ularning tarjimalaridagi muammolariga to'xtalib o'tamiz. Ingliz tili o'quv metodik terminlari o'z ichiga juda ko'plab terminlarni, atamalni o'z ichiga oladi.

Bizga ma'lumki xozirgi tez jadal rivojlanayotgan zamonda xorijiy tillar o'qitishda xam yangi yondashuvlar, turli metodlar va shuningdek o'qitishning yangicha texnikalari kirirb kelmoqda. O'qitishdagi bunday innovatsion yondashuvlarni o'rganish va ularni o'z tajribalarida qo'llash chet tillar asosan ingliz tili o'qituvchilari uchun uzluksiz kasbiy rivojlanishni talab qiladi. Buday rivojlanish uchun ular turli malaka oshirish kurslarini va shuningdek til o'qitishga doir kitoblar va maqolalarni o'qib nazariy va amaliy bilim olishlariga to'g'ri keladi. Bunday kurslarda o'qish jarayonida shuningdek maxsus kasblariga doir kitob va maqolalarni o'qiganda o'qituvchilar kasbga doir terminlarga duch keladilar. Bunday terminlarni tushunishda kontekstga yondashib tushunib olish mumkin, lekin ba'zida tarjima qilish kerak bo'ladi. Bu xolatlarda tarjimonlar va ingliz tili o'qituvchilari o'z ona tillarida mos keladigan terminlarga yondashadilar. Ammo shunday terminlar borki ularning ona tilida tarjimasi yuq va bunday holatda uning ekvivalentini ishlatishga to'g'ri keladi.

Bunday muammolarni yechimini toppish uchun turli olimlar tadqiqotchilar izlanish olib bormoqdalar. Ulardan Lebedov D.Y, D. Igna, O.A. Kryukova, Nelyubin, A.S.Savchits va shuningdek bir qator olimlar o'z tadqiqotlarida chet tillarni o'qitishda qo'llaniladigan terminlarning tarjimasi adekvatliligi va unda uchraydigan muammolari xaqida o'z fikrlarini aytib, turli tadqiqotlar olib borganlar.



A.S.Savchits fikricha, "Lingvodidaktik terminlarni adekvat va bir ma'noli tushunishning ma'lum muammolari mavjud. Shu sababli, mutaxassis ko'pincha terminlarni o'zboshimchalik bilan talqin qilish va ularni noto'g'ri ta'riflashi muammoga olib kelishi mumkin, bu esa terminlarning tillararo ko'p qirraliligi va noaniqligi bilan osonlashadi. Ular nafaqat umumiy ilmiy dunyo tartibiga xilma-xillikni kiritadi, balki, xususan, terminologiyaning "yengilligiga" olib keladi va natijada tushunishda qiyinchiliklarga olib keladi." Biz xam bu fikrga qo'shilgan holatda shuni qitishimiz kerakki ta'limda xam shu soha egalari terminlarni noto'g'ri talqin qilib ularni o'z bilganlaricha tarjima qilsalar bular bir qancha muammolarga olib keladi. Birinchidan, tillarni o'qitishning o'quv metodik terminlari o'zbek tilida to'liq izohli lug'ati chiqmaganligi soha mutaxassislariga va tarjimonlarga biroz qiyinchilik olib kelishi mumkin. Bunday vaqtda ular kontekstual tarjima yoki terminlarning ekvivalentlarini qo'llashdek oson yo'llardan foydalanadilar. Bunday xolat esa terminning noto'g'ri talqin qilinishiga xam olib kelinishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *elicitation* (*elicit, eliciting*) terminining tarjimasini biz *qo'zg'atish, chiqarish* deb tarjima qilamiz yoki *elicitation technique- chiqarish texnikasi* deb olamiz, *contextualize- kontekstuallashtirmoq, aniqlahstirmoq* deb leksik ma'nosini beramiz ammo termin qilib olsak ya'ni *contextualizing technique-aniqlashtirish texnikasi* deganda ma'no sayyoz bo'lib qolishi mumkin. Natijada bunday oddiy tarjima terminning asl mohiyatini yo'qotib qo'yishi mumkin va shunga o'xshash o'quv metodikaga doir terminlarini adekvat ya'ni bir ma'noli tarjimasini soha vakillari va tarjimonlar uchun tushunmovchilik vaziyatlarini keltirib chiqaradi.

Rus tadqiqotchisi Lebedov D. Y. ning fikricha "Maxsus lingvodidaktik matnlarni tarjima qilish, boshqa har qanday matnlar kabi, tarjimondan matnda tasvirlangan hodisalar bilan yetarlicha chuqur tanishishni, va shuningdek nafaqat tilshunoslik, ta'lim berish, stilistika yo'nalishlari bo'yicha nazariy bilimlarga balkim terminshunoslik sohasida xam ma'lum bir tayorgarlikka ega bo'lishlari kerak." (Lebedov D.Y. 2005. 88.b)

Bizning fikrimizcha tilshunoslik va terminshunoslikda ma'lum bir nazariy bilimga ega bo'lish tarjimonni yaxshi tarjima qilishga erishtirishi mumkin ammo ta'lim ya'ni o'quv metodik sohada ma'lum bir bilimi bo'lmaslik tarjima qilishda adekvatlik ya'ni aynan bir xil ma'no chiqmaslikka olib kelishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki har qanday o'quv metodik terminlar tarjima qilinganda undagi aniqlikga etibor qaratilishi lozim. Ba'zi terminlarning ko'p ma'noliliga xam etiborga olinadi.

References:

1. «Проблемы адекватности перевода лингводидактических терминов на материале русского и английского языков» Лебедев Д.Е. 88стр Москва 2005
2. «Термины лингводидактики в различных социокультурных контекстах» А. С. Савчиц. Вестник МГЛУ. Выпуск 3 (663) / 2013
3. Борисова Л.И. Проблемы эквивалентности в научно-техническом переводе: 4.2.-М., 1991.
4. Вине Ж.-П., Дарбельне Ж. Технические способы перевода. (Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике). - М., 1978. - С. 157-167.



5. Дыкина Т.А. Термин и многозначное слово // Семантика языковых единиц: Доклады VI Междунар. конференции. Т.1. - М., 1998. С. 133-134.
6. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии: Вопросы теории и методики. - М., 1961.
7. Lazar, G. Literature and Language Teaching. A Guide for Teachers and Trainers. CUP, 1993.
8. Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics, Longman Publishing, 1992.